

## TIBBIYOT YO'NALISHI TALABALARINI MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA QO'LLANILADIGAN MASOFAVIY TA'LIM TEKNOLOGIYALARI

Ergashev Anvar Ramozanovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14135413>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tibbiyot sohasidagi talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishda masofaviy ta'lim texnologiyalarini takomillashtirishning ahamiyati tahlil qilingan. Tibbiyot yo'nalishidagi talabalarining kasbiy mas'uliyati va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalarning samaradorligi, ularning ta'lim jarayonidagi roli va ular orqali talabalarining shaxsiy rivojlanishiga bo'lgan ta'siri ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor interaktiv ta'lim platformalari, multimedia vositalari va maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalarning (masalan, "Medicon") imkoniyatlariga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy-axloqiy tarbiya, masofaviy ta'lim, texnologiyalar, COVID-19, axloqiy qadriyatlar, interaktiv ta'lim, platformalar, "Medicon" dasturi, individuallashtirilgan ta'lim, axloqiy kompetensiya, innovatsion texnologiyalar, shaxsiy rivojlanish.

**Аннотация.** В данной статье проанализировано значение совершенствования дистанционных образовательных технологий в нравственно-этическом развитии студентов медицинских специальностей. Рассмотрены эффективность современных технологий в формировании профессиональной ответственности и нравственных ценностей у студентов-медиков, их роль в учебном процессе, а также их влияние на личностное развитие учащихся. Основное внимание уделено возможностям интерактивных образовательных платформ, мультимедийных средств и специально разработанных мобильных приложений (например, «Medicon»).

**Ключевые слова:** духовно-нравственное образование, дистанционное образование, технологии, COVID-19, моральные ценности, интерактивное образование, платформы, программа «Медикон», индивидуализированное обучение, моральная компетентность, инновационные технологии, личностное развитие.

**Kirish.** Tibbiyot sohasidagi talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash ularning kelajakdagi kasbiy mas'uliyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda, talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish masofaviy ta'limning asl vazifalaridan biridir. Shuning uchun, tibbiyot yo'nalishi talabalari uchun maxsus ishlab chiqilgan ma'naviy-axloqiy ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

**Asosiy qism.** Masofaviy ta'lim tibbiyot sohasida ilk bor 1950-yillarda AQSh va Kanadada telemeditsina orqali qo'llanila boshlangan. Bu jarayonda tibbiy maslahat berish va xodimlarni o'qitish maqsadida televizion aloqa texnologiyalaridan foydalanilgan. 1980-yillardan keyin internetning rivoji bilan onlayn kurslar paydo bo'ldi, xususan, Buyuk Britaniya va Avstraliya bu borada birinchilardan bo'lgan. 2020-yillarda COVID-19 pandemiyasi masofaviy tibbiy ta'limni global darajada rivojlantirdi. Hozirgi kunda virtual laboratoriyalar, simulyatsiya va vebinarlar orqali tibbiy amaliyotlarni o'qitish yo'lga qo'yilgan. AQSh, Yevropa va Avstraliya ushbu sohada yetakchi davlatlardir.

Masofaviy ta'lim tibbiyot sohasida zamonaviy texnologiyalar yordamida tezkor rivojlanmoqda va uning qo'llanish doirasi kengayib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekiston tibbiyotida ham masofaviy ta'lim an'anaviy o'quv jarayonlarini to'ldiruvchi muhim vosita sifatida qo'llanilmoqda. O'zbekistonda tibbiy ta'lim sohasida masofaviy o'qitishni rivojlantirish maqsadida bir qator loyihalar va dasturlar ishlab chiqilgan, jumladan, elektron platforma va mobil ilovalarni joriy qilishga alohida e'tibor berilmoqda. Bunday platformalar orqali talabalar leksiyalar, interaktiv darslar, video darslar va boshqa multimedia resurslariga onlayn tarzda kirish imkoniga ega bo'lib, o'quv jarayonidagi ma'lumotlarni vaqtida olishlari osonlashadi.

Tibbiyot yo'nalishi talabalari uchun ma'naviy-axloqiy tarbiya berish jarayoni ularning kelajakdagi kasbiy mas'uliyati va jamiyatdagi ijobiy ta'sirini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan masofaviy ta'lim texnologiyalari zamonaviy pedagogik vosita sifatida mazkur jarayonda yetakchi rol o'ynaydi. Bugungi kun talablari asosida axloqiy qadriyatlarni shakllantirish va shaxsiy rivojlanishni ta'minlash uchun interaktiv ta'lim platformalari, multimedia vositalari va maxsus mobil ilovalar, xususan "Medicon" dasturi, katta imkoniyatlarga ega. Masofaviy ta'lim texnologiyalarining samaradorligini oshirish, ularni tibbiy ta'lim jarayonida to'g'ri qo'llash va talabalarni ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirish masalalari ushbu tezisni asosiy maqsadini tashkil etadi.

Bugungi kunda "Medicon" kabi maxsus mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Bunday ilova talabalarga kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun zarur axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishga ko'mak beradi. Ushbu mobil dasturlar, shuningdek, diagnostika, ta'lim jarayonini individuallashtirish va talabalarining o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini ham taqdim etmoqda. Tibbiy yo'nalishdagi talabalar uchun mo'ljallangan maxsus mobil ilova "Medicon", shaxsiy rivojlanish, axloqiy va kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishga ko'maklashadi. Ushbu ilova orqali talabalar axloqiy ta'lim materiallarini o'zlashtirishi, o'z-o'zini baholash jarayonlarini olib borishi va turli axloqiy dilemmalarni muhokama qilishlari mumkin.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari har bir talabaning o'qish suratiga mos ravishda individuallashtirilgan ta'limni joriy etishga imkon beradi. Tibbiyot yo'nalishidagi talabalarining bilim darajasi, qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab, o'quv jarayonida individual materiallar va vazifalar taqdim etilishi mumkin. Bunda interaktiv testlar, ko'nikmalarni baholash simulyatsiyalari va o'z-o'zini baholash dasturlari yordamida talabalar o'z bilimi va ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.

Virtual laboratoriyalar, simulyatsiya vositalari va videolar orqali talabalar tibbiy fanlarni amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etganday o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Masalan, xirurgik amaliyotlar yoki tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha trenajyor simulyatsiyalar orqali talabalar qimmatli ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Bu ularga real amaliyotga tayyor bo'lishda yordam beradi.

Masofaviy ta'limda talabalarining bilimi, malakasi va rivojlanish sur'atini diagnostika qilish osonlashadi. Onlayn testlar va baholash vositalari orqali har bir talabaning o'quv jarayonida qanday muvaffaqiyatga erishgani yoki qaysi sohalarda muammolar borligini aniqlash mumkin. Bu o'quvchilarga o'zlarining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlab, ta'lim jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

Masofaviy ta'lim jarayonida yangi texnologiyalar va ilg'or dasturlardan foydalanish orqali talabalarining ijodiy va innovatsion fikrlash qobiliyatini oshirish mumkin. Masalan,

talabalar tibbiy tadqiqot ishlari, virtual patsientlar bilan simulyatsiya mashg'ulotlari va interaktiv o'yinlar orqali nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish imkoniga ega bo'ladilar.

Masofaviy ta'lim talabalarga nafaqat o'qituvchilar bilan, balki xalqaro darajadagi ekspertlar, professorlar va talabalar bilan ham muloqot qilish imkonini beradi. Masalan, videokonferensiyalar, xalqaro vebinarlar va forumlar orqali talabalar turli mamlakatlar va sohalardan bilim olishadi. Bu esa talabalarning dunyoqarashi va kasbiy o'ziga xoslikni kengaytirishga yordam beradi.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari talabalarning kasbiy kompetensiyasi va axloqiy ongini shakllantirish uchun innovatsion imkoniyatlarni taqdim etadi. Talabalar axloqiy bilim va qadriyatlarni virtual treninglar, video-ta'lim materiallari va o'zaro muhokama qilish vositalari orqali o'zlashtirishadi. Bu ularning kelajakda tibbiy mutaxassis sifatida axloqiy yetuk bo'lishini ta'minlaydi.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari orqali tibbiy ta'lim jarayonida xarajatlarni qisqartirish imkoni tug'iladi. Joylashuvdan qat'i nazar ta'lim jarayonini tashkil qilish imkoni, maxsus vositalardan foydalanish va ta'lim olishdagi cheklovlarni yengib o'tish talabalarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi va samaradorlikni kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, masofaviy ta'lim texnologiyalari tibbiy ta'limda talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini va kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar talabalarga individual ta'lim olish, axloqiy qadriyatlarni rivojlantirish va zamonaviy innovatsion vositalar orqali bilimlarini mustahkamlash imkonini beradi. Masofaviy ta'limni samarali joriy etish talabalarning kasbiy va axloqiy shakllanishini takomillashtirishga xizmat qiladi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. Ibraimov Kh. I. Creativity as one of the characteristics of the personality of the future teacher
4. // Science, education and culture. – 2018. – no. 3 (27). - P. 44-46.
5. Ibragimovich Kh.I. Peculiarities of using credit-module technologies in the higher education system of Uzbekistan //Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. - 2021. - P. 209-214.
6. Ibraimov Kh. "Theoretical and methodological basis of quality control and evaluation of education in higher education system." International journal of discourse on innovation, integration and education 1 (2020): 6-15.
7. Ibragimov, X., Abdullayeva Sh. "Pedagogika nazariyasi (darslik)." T.: Fan va texnologiya 288 (2008).